

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

UDK 413=945.375(045)

Shamshoda Rustamova,

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Шамшода Рустамова

Базовый докторант

Каршинского государственного университета

Shamshoda Rustamova,

Phd student of Kharshi State University

Email: azizbekshamshoda@gmail.com

O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069195>

ANNOTATSIYA

O'smirlar nutqi o'zgarishlarga moyilligi bilan allaqachon shakllanib bo'lgan kattalar nutqidan farqlanib turadi. Bunday o'zgarishlar, odatda, ekstralingvistik omillar natijasida yuzaga keladi. O'smirlar nutqidagi o'ziga xoslik, asosan, nutqning leksik hamda sintaktik qatlamlarida kuzatiladi. O'smirlar og'zaki nutqida uchrovchi so'zlarning asosiy qismi chetdan o'zlashgan bo'lsa-da, ular orasida so'zga yangi ma'no yuklash, yangi so'z hosil qilish holatlari ham ko'p uchraydi. Sintaktik sathdagi innovatsiyalar esa nutqdagi inversiya hodisasida ko'zga tashlanadi. Joriy tadqiqotda Qarshi shahridagi 26-maktabning 7-,8-sinf o'quvchilari hamda Qarshi shahridagi prezident maktabining 7-,8- sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. O'quvchilarning diktofonga yozib olingan spontan og'zaki nutqlari tadqiqot uchun material bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot natijasida umumta'lim maktabi o'quvchilari nutqida inversiya hodisasi ixtisoslashgan maktab o'quvchilari nutqidagidan deyarli 3 barobar ko'pligi aniqlandi. Ya'ni o'smirlar nutqida inversiya hodisasidan ko'proq qaysidir bo'lakka urg'u berish uchun emas, nutq jarayonida qolib ketgan ma'lumotni gap tarkibiga kiritish uchun foydalaniladi.

Kalit so'zlar: nutqiy innovatsiya, leksik innovatsiya, sintaktik innovatsiya, inversiya

РЕЧЕВЫЕ ИННОВАЦИИ И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В РЕЧИ ДЕТЕЙ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

АННОТАЦИЯ

Речь подростков отличается от уже сформировавшейся речи взрослых своей склонностью к изменениям. Такие изменения обычно возникают в результате экстралингвистических факторов. Своеобразие в речи подростков наблюдается главным образом в лексическом и синтаксическом пластах речи. Хотя основная часть слов, встречающихся в устной речи подростков, заимствована извне, среди них также нередки случаи придания слову нового значения, образования нового слова. С другой стороны, нововведения синтаксического уровня заметны в явлении инверсии речи. В текущем

исследовании приняли участие учащиеся 7,8 классов школы № 26 города Карши, а также учащиеся 7, 8 классов президентской школы города Карши. Материалом для исследования послужили спонтанные устные выступления учащихся, записанные на диктофон. Исследование показало, что явления инверсии в речи учащихся общеобразовательных школ почти в 3 раза чаще, чем в речи учащихся специализированных школ. То есть в речи подростков явление инверсии чаще используется не для того, чтобы акцентировать внимание на каком-то фрагменте, а для того, чтобы включить в состав предложения информацию, застрявшую в процессе речи.

Ключевые слова: речевая инновация, лексическая инновация, синтаксическая инновация, инверсия

SPEECH INNOVATIONS AND THEIR EXPRESSION IN THE SPEECH OF ADOLESCENT CHILDREN

ANNOTATION

The speech of teenagers differs from the already formed speech of adults in its tendency to change. Such changes usually occur as a result of extralinguistic factors. The peculiarity in the speech of adolescents is observed mainly in the lexical and syntactic layers of speech. Although most of the words found in the oral speech of teenagers are borrowed from the outside, cases of giving a new meaning to a word and forming a new word are also common among them. On the other hand, innovations at the syntactic level are noticeable in the phenomenon of speech inversion. The current study involved students in grades 7 to 8 of School No. 26 in Karshi, as well as students in grades 7 and 8 of the presidential School in Karshi. The material for the study was spontaneous oral presentations of students recorded on a dictaphone. The study showed that inversion phenomena in the speech of secondary school students are almost 3 times more common than in the speech of specialized school students. That is, in the speech of adolescents, the phenomenon of inversion is more often used not to focus attention on a particular fragment, but to include information stuck in the speech process in the sentence.

Keywords: speech innovation, lexical innovation, syntactic innovation, inversion

Kirish. Til doimiy o'zgarishda bo'lgan ijtimoiy hodisadir. O'zgarishlar, birinchi navbatda, tilning leksik-frazeologik qatlamida yuzaga keladi. Ijtimoiy muhitning o'zgarishi, ilm-fan, texnikaning rivojlanishi, xalqaro aloqalarning integratsiyalashuvi kabi ekstralingvistik omillar tilning lug'at qatlamini boyituvchi asosiy omil hisoblanadi. Odatda bunday yangilanish o'zga tillardan so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish, fonetik moslashtirish, kalkalash yoki tildagi mavjud leksikadan turli usullar yordamida yangi so'z hosil qilish orqali amalga oshadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutqiy innovatsiyalar birinchi navbatda bolalar va o'smirlar leksikasida ko'zga tashlanadi. Bunga sabab sifatida ularning ijtimoiy o'zgarishlarga ochiq ekanliklarini ko'rsatish mumkin. Bolalardagi nutqiy innovatsiyani S.N.Seytlin ularning nutqida qayd etilgan, ammo umumiy til muomalasida mavjud bo'lmagan hodisa sifatida qayd etadi, [1; 331]. Bola tilni atrof-muhitdan taqlid natijasida o'zlashtirib boradi. Nutq organlari va miya faoliyati yetarlicha rivojlanmagan bola murakkabroq so'z va jumalarga aynan taqlid qila olmaydi. Shu sababli kerakli mazmundagi so'zlarni hosil qilish uchun ijodkorlik (oldin o'zlashtirilgan birliklardan yangi so'zlar hosil qilish) talab etiladi. M.Qurbonova mazkur hodisaga quyidagicha ta'rif beradi: "...bolada ijod mahsulining paydo bo'lishi va boyib borishi mazmun bilan ifodani talab etuvchi jarayonda tayyor so'zning mavjud emasligi bilan belgilanadi. Shu tufayli bolalar nutqidagi yoddan chiqarilgan leksik birliklarning o'rnini yangi so'zlar to'ldiradi", [2; 73]. O'smirlardagi nutqiy innovatsiyalar esa bolalar nutqidagidan tubdan farqlanadi. Bolalardagi nutqiy innovatsiyalar tabiiy talab natijasida hosil qilinsa, o'smirlarda bu holat ularning o'z nutqlariga alohida yondashuvlari natijasi hisoblanadi.

Nutqiy innovatsiya shaxs nutqida turli ekstralingvistik omillar natijasida til qonuniyatlarining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Nutqiy innovatsiyalar, asosan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida kuzatiladi. Bola tilni kattalar nutqini kuzatish va takrorlash orqali o'zlashtirib boradi. Shunday bo'lsa-da, bolalar nutqida kattalar nutqida uchramaydigan innovatsiyalar shakllanib boradi.

Bunga sabab sifatida bolaning til qonuniyatlarini hali to'liq o'zlashtirmaganini keltirish mumkin. O'smirlar nutqida ham ko'plab turli innovatsiyalar kuzatiladi. Bu, asosan, leksik va sintaktik sathlarda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Ba'zan o'smirlar nutqida fonetik innovatsiyalarni ham uchrab turadi. Masalan, ...

So'nggi yillarda ko'plab tilshunoslar nutqiy innovatsiyalar, neologizmlar, okkazonal so'zlar, normativ bo'lmagan leksika, sleng, jargon kabi mavzularda izlanishlar olib borishganini kuzatish mumkin. Jumladan, dunyo tilshunosligida o'smirlarning o'ziga xos leksikasi F.Nuraeni, A.P.Arbi, N.Kalim, Z.Vei, S.H.Shahraki, R.Oxbury, J.Roth-Gordon, M.O.Kuts, A.Ardianto, Y.A.Gomaa, G.Tambunsaribu ishlarda yoritilgan, [3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12].

O'smir bolalar nutqidagi leksik innovatsiyalar kichik yoshdagi bolalar leksikasidan kelib chiqishiga ko'ra farqlanadi. Bolalar nutqidagi leksik innovatsiyalar hali yaxshi o'zlashtirilmagan til ko'nikmalari natijasida yuzaga kelsa, o'smirlar nutqidagi bunday innovatsiyalar ma'lum bir maqsadlar asosida hosil qilinadi. Bu haqida oldingiz paragrafda so'z yuritilgan. Leksik innovatsiyalar uch xil yo'l bilan hosil qilinadi:

- 1) yangi so'z hosil qilish;
- 2) so'zga yangi ma'no yuklash;
- 3) chetdan so'z o'zlashtirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida Toshkent va Qarshi shaharlaridagi maktab o'quvchilaridan savol-javob metodi hamda o'smirlarning ijtimoiy tarmoqdagi chatlarini kuzatish orqali ularga xos leksik va frazeologik birliklar yig'ib olindi. Mazkur leksik birliklar qanday maqsadlarda ishlatilishini aniqlash maqsadida 82 ta 7-8-sinf o'quvchilaridan qo'shimcha so'rovnomma o'tkazildi. Bundan tashqari, Qarshi shahridagi prezident maktabi hamda 26-maktabning 7-8-sinf o'quvchilarining spontan og'zaki nutqi diktofonga yozib olindi va matn holatiga keltirildi. Matnlar leksik va sintaktik tahlil qilindi.

Natija va tahlillar. Rivojlangan mamlakatlar (ingliz, rus tillarida so'zlashuvchi mamlakatlar, Yaponiya)da o'smirlar nutqida yangi so'z yasash holatlari ko'proq uchraydi. I.Baresova va H.Zaviszovalar yapon o'smirlari nutqidagi leksik innovatsiyalar so'zlarni qo'shish, chet so'zlariga mahalliy so'z va qo'shimchalarni qo'shish, so'zlarni ikkilantirish, chatishtirish (ikki yoki undan ortiq so'z qismlarini qo'shish orqali yangi so'z yasash), so'z bo'g'inlarini qisqartirish, abbreviatura kabi usullar orqali hosil qilinishini ta'kidlaydi, [13; 158]. O'zbek o'smir bolalari nutqidagi leksik innovatsiyalar, asosan, so'zga yangi ma'no yuklash (o'n beshta kam-yetishmaydi, nol besh-bo'yi past inson, qori aka-ikkiyuzlamachi, molxona-tartibsiz sinf va hokazo) natijasida hosil qilingan.

Jadval

№	So'zga yangi ma'no yuklash orqali hosil qilingan leksik innovatsiyalar	Yangi yuklangan ma'no
1	beshta kam (yetishmaydi)	Odatda hamma uchun tushunarli bo'lgan narsani tushunmaydigan yoki boshqalar uchun noodatiy bo'lgan harakat qiladigan shaxs
2	nol besh	Bo'yi past odam
3	qori aka	Ikkiyuzlamachi, munofiq. Ko'rinishidan, o'zini tutishidan yaxshi odamga o'xshasa-da, aslida odamlar ko'zidan yiroqda noto'g'ri harakat qiladigan inson
4	molxona	Tartibsiz sinf. O'quvchilarini boshqarish, tartibga solish qiyin bo'lgan sinf.
5	kenayishka	Yoshi katta ayol (bu yerda yosh kategoriyasi maktab o'quvchisi yoshiga nisbatan olingan).

6	havorang	Gomoseksual. Rus tilidagi “голубой” soʻzini toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilish natijasida hosil qilingan soʻz.
7	vatan	Yuklangan masʼuliyatdan qochmaydigan, asosan, oʻqish va ishdan qochmaydigan inson.
8	gaz bermoq	Aralashish natijasida maʼlum bir vaziyatni qiyinlashtirmoq
9	ilib qoʻymoq	Mensimaslik. “Keraksiz kiyimni ilgakka ilib qoʻyish” jarayonidan kelib chiqqan leksik birlik. Yaʼni kiyim ilib qoʻyilgandan soʻng unga hech kim eʼtibor bermaydi.
10	Oʻzbek tilini tanlash uchun “1”ni bosing	Tez gapiryapsan, sekinroq gapir, degan maʼnoda ishlatiladi. Telefon operatorining sekin tempda gapirishiga ishora qilingan.
11	Samolyot yetib bordimi	Maʼlumot yoki vaziyatni tushundingmi, degan maʼnoda ishlatiladi.

Yuqorida keltirib oʻtilgan leksik va frazeologik birliklar turli maʼno koʻchirish usullari natijasida oʻsmirlar nutqiga leksik innovatsiya sifatida oʻrnashgan. Bu kabi leksik innovatsiyalar individualligi bilan slenglardan farqlanib turadi. Yaʼni ular maʼlum bir shaxs tomonidan oʻylab topilib, keyin shu jamiyat ichida keng tarqaladi. Lekin boshqa hudud va jamiyatda yashovchi insonlar nutqida mazkur birliklar asl maʼnosida qoʻllanadi. Oʻzbek tilida yangi soʻz yasash natijasida hosil qilingan leksik innovatsiyalar kamchilikni tashkil qiladi.

2-jadval

No	Yangi soʻz yasash natijasida hosil qilingan leksik innovatsiya	Soʻzning maʼnosi
1	domdosh	bitta koʻpqavatli uyda yashovchi insonlar
2	geyselona	“Berselona” futbol klubining LGBTni qoʻllab-quvvatlashiga urgʻu berilgan
3	sabrazm	maktabdagi pul yigʻish jarayoni
4	Wi-fi vinchun	qisqich koʻzli odam

Chetdan soʻz oʻzlashtirish oʻzbek oʻsmir bolalar nutqida eng koʻp uchrovchi holat hisoblanadi. Masalan, individual leksik innovatsiyalar oʻsmirlar nutqida uchrovchi noanʼanaviy soʻzlarning 19.7 foizini, frazeologik birliklar 21 foizni tashkil qilsa, rus va ingliz tillaridan oʻzlashgan soʻzlar 55 foizni tashkil qiladi. Yaʼni oʻsmirlar nutqidagi leksik innovatsiyalarda shaxsiy innovatsiyalar ulushi kichikdir.

Baʼzi oʻsmirlar nutqida bugungi kunda turli plakat va banerlarda uchrashi mumkin boʻlgan maxsus ifodalarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, “24/7” ifodasi bir kunda 24 soat va haftada 7 kun, yaʼni doimiy, degan maʼnoda ishlatiladi. Quyidagi holatda soʻzlovchi oddiygina qilib “doim” degan soʻzni ishlatish oʻrniga “yigirma toʻr-u yetti” ifodasini qoʻllamoqda.

Agar birorta mushukchalarimmi, kuchukchalarimmi boʻlsa, oʻshalarga qaragan boʻlardim yoki **yigirma toʻr-u yetti** koʻchada oʻynab-kulib yurgan boʻlardim. (Pardayeva Mohinur)

Yuqoridagi misolda “doim” soʻzining oʻrniga “yigirma toʻr-u yetti” ifodasining qoʻllanishi soʻzlovchi tinglovchiga yetkazmoqchi boʻlgan maʼlumotni toʻliqroq ochib bergan. “24/7” ifodasi vaqt hisobini “doim” soʻzidan koʻra aniqroq ifodalash uchun xizmat qilgan. Soʻzlovchi garchi nutqida aytib oʻtganidek, hamma vaqtini koʻchada oʻtkazmoqchi boʻlmasa-da, yuqoridagi ifoda orqali doimdan koʻra koʻproq vaqtni nazarda tutgan.

Sintaktik nutqiy innovatsiyalar gap qurilishida namoyon bo'ladi. Gap qurilishidagi innovatsiya gap bo'laklari inversiyasida aks etadi. Og'zaki nutqda gap bo'laklarining o'zni almashishi (inversiya) hodisasi yozma nutqdagidan ko'ra ko'proq uchraydi. Yozma nutq (badiiy, publitsistik uslublar)da inversiya hodisasidan ma'lum bir gap bo'laklarini boshqalaridan ajratib ko'rsatish maqsadida foydalanilsa, spontan og'zaki nutqda inversiyadan qolib ketgan gap bo'laklarini nutq tarkibiga kiritish maqsadida ham qo'llanadi. So'zlovchi fikrini og'zaki nutq orqali ifodalar ekan, unda turli xato va kamchiliklar, jumladan, ba'zi kerakli gap qismlarining qolib ketish holatlari ko'p kuzatiladi. Joriy tadqiqotda oddiy umumta'lim maktabda tahsil oluvchi o'quvchilar nutqida inversiya hodisasi ixtisoslashgan maktab o'quvchilari og'zaki nutqidagidan deyarli 3 barobar ko'pligi aniqlandi. O'rtacha 210 ta so'zdan iborat matnda oddiy maktab o'quvchilari nutqida o'rtacha 1.5 ta inversiya hodisasi, ixtisoslashgan maktab o'quvchilari nutqida esa 0.6 ta inversiya hodisasi kuzatilgan. Umumiy matndan bilish mumkinki, inversiya hodisalari ma'lum bir bo'lakka urg'u berish uchun emas, balki matndan qolib ketgan so'z va so'z birikmalarini jumla oxiriga qo'yish natijasida sodir bo'lgan. O'zbek tilidagi spontan og'zaki nutqlarda inversiya hodisasi, asosan, jumla boshi va o'rtasida joylashishi lozim bo'lgan gap bo'laklarining jumla oxirida joylashishi orqali namoyon bo'ladi. O'smir bolalar og'zaki nutqida inversiyaning birgina so'z orqali yuzaga kelishi ko'p kuzatiladi.

Man o'zgartir... o'zgartirishim kerak bo'lgan hislatlarim buyolg'on gapirishim. Ko'pchilikda kuzatilsa kerak **bu**. O'zimgayam yoqmaydi **ana shu**. (Furqatov Asadbek)

Manga Turkiyada yashash yoqadi, chunki go'zalligi hayratga soladi **mani**. (To'xtamurodova Marjona)

Bu, a man oson ishda taslim bo'mayman, **xich narsaga**. O'shan... o'shanga erishish... erishmagunimcha qo'ymayman, o'sha hislatim yoqadi. (Safarova Sarvinov)

O'smirlar og'zaki nutqida so'z birikmalari va gap qismlarida inversiya hodisasi ko'proq kuzatiladi. Quyidagi misollarda turli vaziyat va sabablarga ko'ra yuzaga kelgan inversiya hodisalari keltirilgan.

Shunda ular buni qannedir ularga judayam qattiq jazo bo'lmaydi, lekin ular har doim tushunib yetishadi **nima qilishyotganini va bu narsa xatoligini**. (Ziyodullayev Azizbek)

Hamda o'zim ham hozir ispan tilini o'rganish... o'rganyapman. Shuning uchun ma Ispaniyada o'qigan bo'lardim, **agar imkoniyat bo'lsa**. (Xolboyeva Shahribonu)

Bu man azgina agressivman, ya'ni holatga tez noto'g'ri yo'l bilan kirib ke... ketishim mumkin va **noto'g'ri tushunib**.

Har uchala misolda ham so'zlovchi o'z fikrini yakunlash arafasida unga qo'shimcha ma'lumot qo'shib, jumla mazmunini yanada to'ldirgan. Ba'zi hollarda gap bo'laklarining tartibi gap ichida ham o'zgarishi mumkin.

Bolalarni jazolash mumkin, manimcha. Faqat oshib ketmasligi kerak. Qattiqqo'llik **sal** qilib turish kerak. (Namozov Elbek)

Bolalarni jazolash mumkin, **lekin me'yordan chiqib ketmagan holda**.

Bunday holatda so'zlovchi gap bo'lagi o'rnini o'zgartirish orqali ma'lum bir so'zga urg'u berishni maqsad qilgan bo'ladi. So'z birikmasi va gap qismlarining inversiyasida ham ma'lum bir gap qismiga urg'u berish nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, gapdagi birliklarning o'rnini o'zgartirish orqali so'zlovchi o'z monoton nutqiga tinglovchi e'tiborini qaratishni maqsad qilishi mumkin.

Ixtisoslashgan maktab o'quvchilari nutqini tahlil qilish jarayonida ingliz tilidagi gap qurilishi o'zbek tilidagi matn tarkibida uchrashi kuzatildi.

Va bir necha marta qayta o'qigan kitobim bu "Boy ota va kambag'al ota", **Robert Kiosaki tomonidan**. (Haqmirzayev Bobur)

Yuqorida keltirilgan gap tarkibidagi "Robert Kiosaki tomonidan" birligi ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri o'zlashgan. Ingliz tilida biror ijod namunasi muallifi gap oxirida "by somebody" birikmasi orqali ifodalanadi. Masalan, yuqoridagi gapni ingliz tilida beradigan bo'lsak, quyidagi shaklda ifodalanar edi:

The book which I have read several times is "A rich father and poor father", **by Robert Kiosaki**.

Bunday holat boshqa tilda doimiy muloqot qilayotgan odamlar nutqida tez-tez kuzatilishi mumkin. G.N.Chirshevaning fikriga ko'ra bilingvizm sharoitida nutq shakllantirish avval miyada gap strukturasini tanlash bilan boshlanadi. Undan keyin esa mazkur qolipga morfema yoki so'zlar tanlanadi, [14; 27]. Odatda so'zlovchi tanlangan strukturani nutq oxirigacha saqlab qoladi. Ammo ba'zan so'zlovchining har ikki tilda gaplashish tajribasi kamligi natijasida yoki gap stukturasida, yoki so'z tanlashda boshqa til birliklari, strukturasidan vaqtinchalik foydalanib turadi.

Yaponiyada bitta metroda stansiya bor **animega bog'liq**. O'shani pryam ko'rgim keladi. V asnovnom, lekin o'ylab ko'rmaganman **bu savolni**. (Pardayeva Mohinur)

Xulosa. Nutqiy innovatsiyadan so'zlovchi nutqini boshqalar nutqidan ajratib ko'rsatish, mazkur nutqqa e'tibor qaratish, nutqning va so'zlovchining individualligini oshirish kabi maqsadlar uchun foydalaniladi. Mazkur hodisa til sathlariga ko'ra fonetik, leksik, sintakrik, uslubiy nutqiy innovatsiyalarga bo'linadi. Umuman olganda, har bir til sathi so'zlovchining kim ekanligi, qanday muhitda yashashi, tahsil olishi yoki faoliyat yuritishiga ko'ra turlicha shakllanadi. Yuqorida qayd etilganidek, o'smir yoshli bolalar nutqida fonetik nutqiy innovatsiyani uchratish qiyin. Ammo individual leksik innovatsiyalar matn mazmuni va vaziyatga qarab hosil qilinadi. Odatda, bunday innivatsiyalar o'sha vaziyatning o'zida unutiladi va qayta foydalanilmaydi. Sintaktik nutqiy innovatsiyani gap bo'laklarining transpozitsiyasida kuzatish mumkin. Bunday holat turli sabablarga ko'ra yuzaga chiqishi va turli maqsadlarda qo'llanishi mumkin. O'smirlar nutqida esa uch xil vaziyatda:

- 1) gapdagi qaysidir bo'lakka urg'u berish, ajratib ko'rsatish uchun;
- 2) nutqda qolib ketgan bo'lakni gap tarkibiga kiritish uchun;
- 3) boshqa til qolipiga o'rganib qolish natijasida ba'zi bir gap bo'laklari tartibini o'zgartirish orqali inversiya hodisasidan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Цейтлин С.Н. Детские речевые инновации: опыт анализа. Исследования по языкознанию: К 70-летию члена-корреспондента РАН А.В. Бондарко. - СПб., 2001. - С. 329-336.
2. Qurbonova M.A. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. - T.: "Fan va texnologiya". 2014, 73-bet.
3. Nuraeni F., Pahamzah J. An analysis of slang language used in teenager interaction. Litera. Vol. 20. No2. 2021, Pp: 313-322.
4. Arbi A.P. Kalim N. Analysis of slangs used by the students of 9A class of SMP PGRI Wringinanam. Journal Hurriah: Journal Evaluasi Pendidikan dari Penelitian. Vol. 3, No 3. 2022, Pp: 53-63.
5. Vei Z. Analysis of Russian youth slang by native Chinese. ShS Web of Conferences Vol. 134: 00012. 2022.
6. Shahraki S.H. Check this one out: Analyzing of slang usage among Iranian male and female teenagers. English language teaching. Vol. 4, No. 2, 2011. Pp: 198-205.
7. Oxbury R., Hunt M., Cheshire J. Epistemic phrases and adolescents speech in West London. English Language and Linguistics, Vol. 27, No.4, 2023. Pp: 815-848.
8. Roth-Gordon J. Youth, slang, and pragmatic expressions: Examples from Brazilian Portuguese. Journal of sociolinguistics. Vol. 11, No. 3, 2007, Pp: 322-345.
9. Kuts M.O. Place of youth slang and banter in the lexical system of modern English and Ukrainian languages. Интеллект. Особистість. Цивілізація. ISSN 2079-4835. № 1 (26) 2023. Pp: 27-40.
10. Ardianto A. Linguistics initiative code – switching and slang: An analysis of language dynamics in the everyday lives of generation Z. Linguistics Initiative Vol:4(1), 2024, Pp: 76-87.
11. Gomaa Y.A. Saudi youth slang innovations: a sociolinguistic approach// International journal of linguistics and communications. Vol. 3, No. 2, 2015. Pp. 98-112.

12. Tambunsaribu G. The use of rude words by Indonesian teenagers: a sociolinguistic case. *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*, vol. 297. Pp: 126-129.
13. Baresova I., Zaviszova H. Creativity and Innovation in Word Formation by Japanese Young People. *Language Use and Linguistic Structure: Proceedings of the Olomouc Linguistics Colloquium 2013*. 157-170. 10.5507/ff.14.24440606.11.
14. Чиршева Г. Н. Билингвальная речь // *Вестник ОГУ*. 2003. №4. Сс: 23-29. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bilingvalnaya-rech>.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000